



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DIN VA DAVLAT MUNOSABATLARI

**Numonova Malika Abduxakim qizi**  
[numonovamalika38@gmail.com](mailto:numonovamalika38@gmail.com)

**Anotatsiya.** *Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasidagi diniy bag'rikenglik va dunyoviylik tamoyillari o'rtaсидаги muvozanat o'rganilgan. O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida diniy erkinlikni ta'minlash borasida amalga oshirgan siyosati. Dunyoviy davlat tamoyillarini amalga oshirishdagi yutuqlari va bu jarayondagi qiyinchiliklar tahlil etilgan. Diniy bag'rikenglikning huquqiy asoslari, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni, shuningdek, ijtimoiy siyosatda diniy ekstremizm va radikalizmga qarshi kurashishda o'ziga xos metodlar va chora-tadbirlar ko'rib chiqilgan.*

**Kalit so'zlar.** *Diniy bag'rikenglik, dunyoviylik, diniy erkinlik, ijtimoiy barqarorlik, O'zbekiston Respublikasi, diniy ekstremizm, radikalizmga qarshi kurash, jamiyatdagi diniy muvozanat, ijtimoiy siyosat, huquqiy asoslar, davlat va din, ma'rifat, yuksak qadriyatlar, diniy erkinlikka hurmat, fuqarolik jamiyati.*

**Abstract.** *This article examines the balance between religious tolerance and the principles of secularism in the Republic of Uzbekistan. It analyzes the policy implemented by Uzbekistan as an independent state in ensuring religious freedom, the achievements in realizing secular principles, and the challenges faced in this process. The legal foundations of religious tolerance, its role in ensuring social stability, and specific methods and measures for combating religious extremism and radicalism in social policy are discussed.*

**Keywords.** *religious tolerance, secularism, religious freedom, social stability, Republic of Uzbekistan, religious extremism, combating radicalism, religious balance in society, social policy, legal foundations, state and religion, enlightenment, high values, respect for religious freedom, civil society.*

**Аннотация.** В данной статье рассматривается баланс между религиозной терпимостью и принципами светскости в Республике Узбекистан. Анализируются действия Узбекистана как независимого государства по обеспечению религиозной свободы, достижения в реализации принципов светскости и проблемы, с которыми сталкивается страна в этом процессе. Рассмотрены правовые основы религиозной терпимости, ее роль в обеспечении социальной стабильности, а также методы и меры борьбы с религиозным экстремизмом и радикализмом в социальной политике.



**Ключевые слова.** Религиозная терпимость, светскость, религиозная свобода, социальная стабильность, Республика Узбекистан, религиозный экстремизм, борьба с радикализмом, религиозное равновесие в обществе, социальная политика, правовые основы, государство и религия, просвещение, высокие ценности, уважение к религиозной свободе, гражданское общество.

O‘zbekiston Respublikasi o‘zining Konstitutsiyasida belgilab qo‘yilgan asosiy tamoyillarga sodiq qolgan holda, demokratik, huquqiy va dunyoviy davlat sifatida shakllanmoqda. Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi — inson huquqlari va erkinliklarini ta’minalash, ijtimoiyadolat, bag‘rikenglik va totuvlikka asoslangan jamiyat qurishdan iborat. Shu jarayonda e’tiqod erkinligi va dunyoviylik prinsiplarining uyg‘unlashuvi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Dunyoviylik — bu davlatning dinlardan mustaqilligini, diniy qarashlar davlat siyosatiga aralashmasligini anglatadi. Bu tamoyil jamiyatda hamma uchun teng va adolatli huquqiy muhit yaratadi, diniy qarashlardan qat’i nazar, fuqarolarning tengligini ta’minalaydi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida mamlakat dunyoviy davlat ekani aniq belgilangan. Bunday yondashuv diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikka asos bo‘ladi.

Shu bilan birga, e’tiqod erkinligi ham Konstitutsiya va boshqa qonun hujjalari orqali himoya qilinadi. Har bir fuqaro o‘z diniy qarashlarini erkin tanlash, e’tiqod qilish yoki qilmaslik huquqiga ega. Bu huquq xalqaro inson huquqlari standartlariga mos keladi va O‘zbekistonda inson huquqlari kafolatlarining bir qismi sifatida qaraladi. Zamonaviy O‘zbekiston jamiyatida diniy qadriyatlar muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, davlat boshqaruvi va siyosatida diniy ta’sirga yo‘l qo‘yilmaydi. Shu sababli, dini erkinlik va dunyoviylik o‘rtasida muvozanat saqlanishi juda muhim. Bu muvozanatni ta’minalash orqali davlat ijtimoiy barqarorlikni, konfessiyalararo totuvlikni va inson huquqlarini birdek himoya qilishga erishmoqda. Dunyoviylik tamoyili zamonaviy huquqiy davlat qurilishi jarayonida muhim o‘rin tutadi. Bu tushuncha, eng avvalo, davlatning diniy tashkilotlardan ajratilganligini, ya’ni davlat siyosatida, qonun chiqarishda va boshqaruvda diniy normalar emas, balki umumiyluq fuqarolik huquqlari va qonunlarga asoslangan yondashuv ustuvor bo‘lishini anglatadi. O‘zbekiston Respublikasida bu tamoyil davlatning huquqiy asoslarida, xususan, Konstitutsiyada mustahkamlab qo‘yilgan. Xususan, Konstitutsiyaning 1-moddasida O‘zbekiston – suveren, demokratik, huquqiy va dunyoviy davlat ekani aniq qayd etilgan. Bu holat davlatning barcha ijtimoiy va siyosiy hayot sohalarida dinlardan mustaqilligini, ya’ni hech bir dinning ustun qo‘yilmasligini bildiradi.



Dunyoviylik diniy qadriyatlarni inkor etmaydi, aksincha, har bir din vakiliga, e'tiqodi, qarashlari qanday bo'lishidan qat'i nazar, teng imkoniyatlar yaratishni ko'zda tutadi. Dunyoviylik tamoyilining mohiyatida hamma fuqarolarning qonun oldida tengligi yotadi. Bu tamoyil jamiyatda hech bir diniy e'tiqod ustun yoki zaif, to'g'ri yoki noto'g'ri deb baholanmasligini, balki inson huquqlari markazda bo'lishi lozimligini ta'minlaydi. Bu esa ijtimoiy totuvlik, bag'rikenglik va barqarorlikka xizmat qiladi. O'zbekiston jamiyatida yuzlab yillar davomida turli din vakillari tinch-totuv yashab kelgan, bu esa bugungi kun uchun ham dolzarb bo'lib, davlat siyosatida o'z aksini topmoqda.

Dunyoviylik tamoyili, shuningdek, ta'lim tizimida, siyosiy boshqaruvda, huquqni muhofaza qilish va sud tizimida diniy ta'sirni cheklash orqali professional va betaraf muhitni shakllantiradi. Masalan, umumiy o'rta maktablarda ta'lim diniy emas, balki dunyoviy fanlar asosida olib boriladi. Bu esa fuqarolarning jahonqarashi keng, tahliliy fikrlay oladigan, zamonaviy texnologiyalarni egallagan kadrlar bo'lib yetishishiga asos bo'ladi. Shu bilan birga, diniy bilim olish istagidagi shaxslar uchun maxsus diniy o'quv muassasalari faoliyat yuritadi. Bu o'rinda ham davlat tomonidan qat'iy tartib va talablar belgilangan bo'lib, diniy ta'limning umumiy ta'limdan ajratilganligi dunyoviylik tamoyilining amaliy ifodasidir.

O'zbekistonning dunyoviy siyosat olib borayotganining yana bir muhim belgisi — davlat organlarining diniy faoliyatga bevosita aralashmasligi, lekin zarur hollarda huquqiy asosda tartibga solish vakolatiga ega ekanlidir. Bu, ayniqsa, diniy ekstremizm va radikalizm tahdidlariga qarshi kurashishda muhim rol o'ynaydi. Dunyoviy davlat diniy tashkilotlarning qonunchilikka rioya qilgan holda erkin faoliyat yuritishini ta'minlaydi, biroq bu erkinlik jamiyat xavfsizligi, inson huquqlari va ijtimoiy tartibni buzmasligi shart. Shu sababli, diniy erkinlikni suiiste'mol qilish, diniy nifoq chiqarish yoki konstitutsiyaviy tuzumga qarshi targ'ibot olib borish holatlari qonun bilan taqiqlanadi. Bu chora-tadbirlar dunyoviylikning faqat shakliy tamoyil emas, balki jamiyat barqarorligini ta'minlashga qaratilgan amaliy vosita ekanini ko'rsatadi. Bundan tashqari, dunyoviylik tamoyili xalqaro huquqiy normalarga ham mos keladi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tirof etilgan asosiy tamoyillardan biri bu — din erkinligini ta'minlagan holda, uni davlat siyosatidan ajratishdir. O'zbekiston ayni shu yo'lni tanlagan va o'z milliy modelini shakllantirmoqda. Bunda xalqning tarixiy, madaniy, diniy xususiyatlari inobatga olinadi, lekin dunyoviylikning prinsiplari buzilmaydi. Shu jihatdan, O'zbekistonda dunyoviylik — bu faqat g'arbona modelni ko'r-ko'rona ko'chirish emas, balki o'z milliy qadriyatlarimizga tayanib, ijtimoiy barqarorlikni,





diniy bag‘rikenglikni va fuqarolar orasida tenglikni mustahkamlovchi tizimdir. Bu tizimda din muqaddas qadriyat sifatida hurmat qilinadi, biroq siyosiy kuch sifatida qaralmaydi. Zero, dinning siyosiy lashtirilishi tarixda ko‘p bora ijtimoiy beqarorlik va ziddiyatlarga sabab bo‘lgan. O‘zbekiston bu yo‘ldan bormasdan, aksincha, barqaror va tinch jamiyat qurish yo‘lini tanlagan.

O‘zbekiston Respublikasi inson huquqlarini eng muhim ijtimoiy qadriyat sifatida e’tirof etadi. Dini erkinlik esa ushbu huquqlarning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Har bir shaxsning o‘z e’tiqodiga ega bo‘lish, din tanlash, diniy marosimlarni ado etish yoki hech qanday e’tiqodga ega bo‘lmaslik huquqi mamlakat Konstitutsiyasi va boshqa qonunchilik hujjatlari orqali kafolatlangan. O‘zbekiston Respublikasining 31-moddasida: “Har kim vijdon erkinligiga ega. Har kim o‘zining diniy e’tiqodiga ega bo‘lish yoki hech qanday e’tiqodga ega bo‘lmaslik huquqiga ega.

Dini erkinlikni tartibga soluvchi yana bir muhim hujjat – bu “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonundir. Ushbu Qonun birinchi marta 1998-yilda qabul qilingan bo‘lib, 2021-yilda yangidan tahrir qilinib, xalqaro tajriba va zamonaviy ehtiyojlar asosida takomillashtirildi. Yangi tahrirdagi Qonunga muvofiq, har bir fuqaro diniy e’tiqodga ega bo‘lish yoki bo‘lmaslik huquqiga ega, diniy marosimlarni ado etishda erkindir, biroq bu huquq boshqalarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga zarar yetkazmasligi lozim. Shuningdek, diniy tashkilotlarni ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi soddalashtirildi, ularning faoliyati aniq va shaffof me’yorlar asosida yo‘lga qo‘yildi. Bu esa din bilan bog‘liq fuqarolik erkinliklarini amalga oshirishga qulay huquqiy muhit yaratdi. Qonun diniy tashkilotlar davlatdan ajratilganligini belgilaydi, lekin ularning jamiyatda muhim ma’naviy rol o‘ynashini tan oladi. Aynan shu holat diniy erkinlik va dunyoviylik o‘rtasidagi muvozanatning huquqiy ifodasidir.

O‘zbekiston xalqaro maydonda ham dini erkinlikni ta’minlash borasidagi majburiyatlarini bajarib kelmoqda. Mamlakat Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1966-yildagi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt kabi hujjatlarni ratifikatsiya qilgan. Ushbu xalqaro me’yorlarda har bir insonning vijdon, e’tiqod va din erkinligi tan olingan. Unga ko‘ra, insonlar diniy e’tiqodiga muvofiq yashash, diniy ta’lim olish, farzandlariga e’tiqod asosida tarbiya berish, diniy marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslik huquqiga ega. O‘zbekiston Respublikasi bu majburiyatlarni milliy qonunchilikka uyg‘unlashtirib, dini erkinlik sohasida xalqaro standartlarga mos siyosat yuritmoqda. Davlatning diniy erkinlik borasidagi siyosati nafaqat huquqiy hujjatlar orqali, balki amaliyotda ham namoyon bo‘lmoqda.



Xususan, diniy tashkilotlar, masjidlar, cherkovlar va boshqa konfessiyalarga tegishli ibodat joylari qonuniy ro‘yxatdan o‘tkazilib, ularning faoliyati qonun asosida erkin amalga oshirilmoqda. Har yili muqaddas hayat bayramlari, boshqa din vakillarining diniy sanalari ommaviy ravishda nishonlanadi. Bu holat davlatning turli e’tiqod egalari huquqlarini teng ko‘rayotganini va dini bag‘rikenglikni rag‘batlantirayotganini ko‘rsatadi. Diniy ta’lim sohasida ham ijobjiy siljishlar kuzatilmoqda. Toshkent islam instituti, Imom Buxoriy nomidagi ilmiy-tadqiqot markazi, Hadis ilmi maktabi, shuningdek, boshqa diniy ta’lim muassasalari faoliyat yuritmoqda. Diniy adabiyotlarni nashr etish va tarqatish ham qonuniy tartibda olib borilmoqda. O‘zbekistonda dini erkinlik mustahkam huquqiy asosga ega. Konstitutsiyaviy normalar, maxsus qonunlar va xalqaro huquqiy majburiyatlar asosida diniy e’tiqod erkinligi kafolatlangan. Davlat diniy tashkilotlarning erkin faoliyat yuritishini qo‘llab-quvvatlaydi, lekin bu faoliyat umumiyoj ijtimoiy barqarorlik va fuqarolarning boshqa huquqlari bilan uyg‘un holda olib borilishi kerak. O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, diniy erkinlik va dunyoviylik tamoyillarini birgalikda uyg‘unlashtirish orqali jamiyatda tinchlik, totuvlik va barqarorlikni ta’minalash mumkin. Zamonaviy jamiyatda barqarorlik, totuvlik va taraqqiyotning muhim sharti bu — o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik va diniy sabr-toqatga asoslangan munosabatlardir. Ayniqsa, ko‘p konfessiyali va ko‘p millatli jamiyatlarda diniy bag‘rikenglik ijtimoiy barqarorlikning muhim tayanchi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi bu borada o‘ziga xos tajribaga ega bo‘lib, turli diniy e’tiqod vakillarining tinch-totuv yashashini ta’minalash, ularning huquqlarini himoya qilish, diniy erkinlikni hurmat qilish orqali jamiyatda barqarorlikni mustahkamlab kelmoqda. Bag‘rikenglik deganda faqat boshqa din vakillariga sabr bilan munosabatda bo‘lish emas, balki ularning mavjudligini tan olish, ularning qadriyatlarini hurmat qilish va tinch-totuv hayot kechirishga imkon yaratish tushuniladi. Bu esa ijtimoiy barqarorlikka olib keluvchi asosiy omillardan biri sanaladi.

Diniy bag‘rikenglikning yo‘qligi odatda ijtimoiy ziddiyatlarga, kelishmovchiliklarga, hatto mojarolarga olib kelishi mumkin. Tarixiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, jamiyatda diniy murosasizlik avvalo ijtimoiy qatlamlar o‘rtasida ishonchszlikni kuchaytiradi, keyinchalik esa bu ziddiyatlar siyosiy beqarorlik darajasigacha yetib borishi mumkin. Aksincha, diniy bag‘rikenglik hukm surgan jamiyatda odamlar bir-birining e’tiqodiga aralashmaydi, farqlarni emas, o‘xshashliklarni ko‘rishga harakat qiladi, natijada tinchlik va barqarorlik mustahkamlanadi. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon, aynan diniy bag‘rikenglik tamoyillarini ilgari surgan holda, ijtimoiy barqarorlikni ta’minalab



kelmoqda. Mamlakatda islom dini bilan bir qatorda nasroniylik, yahudiylik, buddizm, protestantlik kabi boshqa konfessiyalar vakillari ham erkin yashamoqda. Ularning ibodat joylari, diniy tashkilotlari qonuniy faoliyat olib bormoqda. Davlat bu jarayonga aralashmasdan, faqat qonun doirasida tartib va muvozanatni ta'minlab turadi. Bunday muhit esa turli diniy guruhlar o'rtasida ishonchni kuchaytiradi, ular orasida o'zaro hamkorlik va muloqotni rag'batlantiradi. Diniy bag'rikenglik ijtimoiy barqarorlik uchun nafaqat passiv toqatlilik, balki faol fuqarolik madaniyatining ko'rinishidir. Ya'ni, shaxs nafaqat boshqa e'tiqod vakillariga toqat qiladi, balki u bilan teng huquqli fuqarolar sifatida munosabatda bo'ladi. Bu holat jamiyatdaadolatli munosabatlarni shakllantirishga, ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bunday madaniyat jamiyatda turli diniy va madaniy qatlamlar o'rtasida keskinliklarning oldini oladi. O'zbekistonda mavjud bo'lgan bag'rikenglik siyosati orqali bugungi kunda turli millat va din vakillari o'zini yagona xalqning bir bo'lagi sifatida his qiladi. Bu esa bevosita jamiyatdagi umumiy barqarorlik va taraqqiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, O'zbekistonda har yili turli din vakillarining diniy bayramlari umumxalq miqyosida nishonlanadi, televideniye va ommaviy axborot vositalarida ular haqida iliq ko'rsatuvlar efirga uzatiladi, bu esa ijtimoiy ongda bag'rikenglik va hurmat tamoyillarini mustahkamlab boradi.

**Xulosa.** O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng jamiyat hayotida tub o'zgarishlar ro'y berdi, xususan, diniy erkinlik va dunyoviylik o'rtasidagi munosabatlar yangicha mazmun kasb eta boshladi. Davlat va din munosabatlarini tartibga solishda dunyoviylik tamoyiliga asoslangan huquqiy, siyosiy va ijtimoiy tizim barpo qilindi. Shu bilan birga, fuqarolarning diniy erkinligi, e'tiqod huquqi, ibodat qilish yoki qilmaslikdagi tanlovi qonuniy asosda kafolatlandi. Bunday yondashuv davlatning hech bir dinga afzal ko'rmasligi, biroq barcha din vakillariga teng yondashishi orqali jamiyatda ijtimoiy adolat, tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qildi.

O'zbekistonda diniy bag'rikenglik madaniyati tarixan chuqur ildiz otgan bo'lib, hozirgi kunda bu tamoyil davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylangan. Turli konfessiyalar o'rtasidagi totuvlik, ularning qonuniy asosda faoliyat yuritishi, dinlararo muloqotga yo'l ochilishi, diniy ekstremizm va radikalizmga qarshi ma'rifat asosida kurash olib borilishi — bularning barchasi diniy bag'rikenglikning amaliy namunasidir. Ayni chog'da, dunyoviylik va diniy erkinlik o'rtasidagi muvozanat saqlanishi, hech bir tomon haddan oshmasligi barqarorlikning kafolati bo'lib qolmoqda. Dunyo miqyosidagi tajriba shuni ko'rsatadiki, diniy masalalarining siyosiyashtirilishi yoki davlatning diniy ishlar bilan haddan tashqari aralashuvi ijtimoiy ziddiyatlarga, mojarolarga olib keladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda,





O‘zbekiston tajribasi — ya’ni, dunyoviy davlat asosida har bir fuqaroning e’tiqod erkinligini kafolatlash va dinni siyosatdan ajratgan holda erkin rivojlantirishga sharoit yaratish yo‘li — boshqa mamlakatlar uchun ham o‘rnak bo‘lishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992).
2. Sh.M. Karimov, "Yangi O‘zbekistonni barpo etishda diniy bag‘rikenglikning roli" (2010).
3. I. G‘afurov, "O‘zbekiston va diniy bag‘rikenglik tamoyillari" (2013).
4. T.S. Tursunov, "Diniy bag‘rikenglik va ijtimoiy barqarorlik" (2017).
5. N. Mamatqulov, "Diniy erkinlikning huquqiy asoslari" (2015).
6. B. Rajabov, "Jamiyat va din: O‘zaro munosabatlар" (2020).
7. BMT, "Diniy erkinlik va dunyoviy davlat tamoyillari: Xalqaro tajriba" (2018).
8. YUNESKO, "Diniy bag‘rikenglikni mustahkamlash yo‘llari" (2021).
9. D. Urazov, "Din va siyosat: O‘zbekiston tajribasi" (2019).

